



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 70-76 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

FOYDA SOLIG'I VA INVESTITSIYA JARAYONLARI UYG'UNLIGINI TA'MINLASH MASALALARI



Zarif Oripovich Axrorov

i.f.d., professor v.b., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali, e-mail: z.akhroroff@gmail.com

Behruz Shuxrat o'g'li Fazliddinov

magistrant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya. Bugungi kunda investitsiyalarni jalb etish va ularni soliqlar orqali tartibga solish muhimdir. Maqola bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga bag'ishlangan bo'lib, unda foyda solig'ining investitsiyalarni jalb qilishdagi ta'siri ko'rib chiqilgan. Investitsiya faoliyatini foyda solig'i imtiyozlari orqali rag'batlantirish, foyda solig'i va investitsiya siyosatini yuqori natijaviyligini ta'minlash borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: foyda, foyda solig'i, investitsiya, soliq siyosati, korxona.

Аннотация. В современных условиях привлечение инвестиций и их регулирование посредством налогов приобретает особую значимость. Данная статья посвящена одной из актуальных проблем современности и рассматривает влияние налога на прибыль на процесс привлечения инвестиций. В статье разработаны предложения и рекомендации по стимулированию инвестиционной активности через предоставление налоговых льгот по налогу на прибыль и повышению результативности налоговой и инвестиционной политики.

Ключевые слова: прибыль, налог на прибыль, инвестиции, налоговая политика, предприятие.

Abstract. In modern conditions, attracting investments and regulating them through taxation is of great importance. This article is devoted to one of the most pressing issues of today and examines the impact of corporate income tax on attracting investments. Proposals and recommendations have been developed to stimulate investment activity through corporate income tax incentives and to enhance the effectiveness of tax and investment policies.

Keywords: profit, corporate income tax, investment, tax policy, enterprise.

1. Kirish

Soliq siyosatini takomillashtirish doirasida soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi. Aynan milliy iqtisodiyotda investitsiyalarni jalb etishda foyda solig'ining xo'jalik sub'ektlari faoliyatiga ta'sirini maqbullashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Aynan, soliq tizimi orqali davlat va korxonalar o'rtasida, bir tomondan, davlat budjetini shakllantirish, boshqa tomondan yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqaruvchi foydasini taqsimlash munosabatlari vujudga keladi. Foyda solig'i bo'yicha korxonalarga berilgan imtiyozlar foydani soliqqa tortishning samarali tizimini tashkil etishda ahamiyatlidir. Ular ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirishga hal qiluvchi qarorlarni qabul qilishda, korxona faoliyati ijobiy moliyaviy natijalarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, daromadlarning o'sishi mamlakat budjetiga tushumlarni oshiradi, davlatni etarli moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir davlat bozor munosabatlarining salbiy ta'sirlarini ma'lum regulyatorlar sifatida soliq siyosatidan keng foydalanadi. Soliqlar bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida iqtisodiyotni boshqarishning kuchli vositasi sanaladi. Shu jumladan, mamlakat investitsiya salohiyatini va investitsiya iqlimini shakllantirish, investitsiyalarni tartibga solish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish aynan soliqlar orqali tartibga solinadi. Bunda foyda solig'i investitsiyalar muhitiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida maydonga chiqadi.

2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonaning asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi. E.Shefflening fikriga qo'shilgan holda, foyda – investitsiya qilingan kapital qaytimi [1] hisoblanadi. Demak, foydaga erishish investitsiyalar samaradorligi va faoliyat foydasidan to'lanadigan soliqlar bilan bevosita va bilvosita bog'liq.

Prof. Sh.Toshmatov korxonalar foydasini soliqqa tortishda nafaqat fiskal instrumentlar bilan, balki xususiy tadbirkorlik va investitsiya faoliyatlarini ham rag'batlantirish orqali ta'sir ko'rsatish lozimligini ta'kidlaydi [12].

I.Niyazmetov fikricha, korxonalarning ayrim toifalariga berilgan, iqtisodiy asoslanmagan va samarasiz soliq imtiyozlari ro'yxati qanchalik qisqartirilsa sanoat korxonalarining soliq yukini kamaytirishga shunchalik imkon yaraladi. Shu sababli, individual xarakterda Soliq kodeksidan tashqari berilgan barcha soliq imtiyozlarini bekor qilib, ularning o'rniga xalqaro amaliyotda sinalgan innovatsion soliq kreditlari, soliq ta'tillarini ko'zda tutish maqsadga muvofiq [13].

D.Abdullaev foyda solig'i mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish, eksportni ko'paytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy instrumenti deya e'tirof etadi [14].

Soliq siyosati investitsion faoliyatni rag'batlantirish sharoitlari va imkoniyatlarini yaratibgina qolmasdan, soliq to'lovchilarni iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni yangilashga majbur qilishi lozim [2]. Aynan foyda solig'i orqali ham investitsion faoliyatning iqtisodiy o'sishiga, ham pasayishiga ta'sir etish mumkin. Bir qator olimlar investitsiyalarni jalb qilishga to'sqinlik qilmaydigan va iqtisodiy o'sishini ta'minlaydigan soliq tizimini ishlab chiqishni ta'kidlaydilar [3]. Agarda, soliq solinadigan ob'ektdan qilingan investitsiya to'liq qoplangan bo'lsa, bu soliq tizimi investitsiyalarni jalb qilishni buzmagani bo'ladi [4-5].

Investorlar maksimal foyda olish maqsadida soliq qonunchiligini chetlab o'tishga harakat qilishadi. De Vito firmalarning investitsion xarajatlarini chegirib tashlanishi natijasida kelib chiqadigan ta'sirlarni yumshatish bo'yicha soliqlarni to'lash holatlarini ko'rib chiqqan [6].

Ta'kidlash joizki, foyda solig'ini optimallashtirishga nafaqat "fiskal" davlat byudjeti tushumlarini oshirish nuqtai nazaridan, balki iqtisodiyotning barqarorligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va yuqori darajadagi risklar bog'liq faoliyatini tartibga solish instrumenti sifatida qarash lozim.


3. Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ishda analitik taqqoslash, mantiqiy va qiyoslama tahlil kabi an'anaviy usullardan foydalaniladi. Xorijiy va mahalliy olimlar, tadqiqotchilarning soliq munosabatlariga oid ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilinib, natijalar asosida xulosalar shakllantirildi.

4. Tahlil va natijalar

Hozirgi byudjet daromadlarining asosiy manbasi sifatida bilvosita soliqlardan foydalanib kelinayotgan bo'lsa, bevosita soliqlar, xususan foyda solig'i xo'jalik sub'ektlari iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishda keng qo'llanilmoqda. Lekin har qanday sharoitda ham asosiy e'tibor foyda solig'i stavkasining o'zgarishiga xo'jalik sub'ektlarining investitsion faoliyatini rivojlantirishga keng imkoniyatlar berib kelmoqda.

Umuman olganda, mamlakat byudjetini tashkil etishda foyda solig'ining ahamiyati beqiyos. O'zbekiston byudjet tizimida foyda solig'i muhim ahamiyatga ega (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston byudjet daromadlarida foyda solig'ining ulushi*

*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobot ma'lumotlari

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2021-2024 yillar davomida soliq daromadlari o'sish tendensiyasiga ega bo'lib turgan bursada, uning tarkibidagi foyda solig'i ulushi yillar davomida kamayishga erishgan. Jumladan, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan byudjet daromadlarida foyda solig'i ulushi sezilarli kamaygan. Bu soliq islohotlari natijasida foyda solig'i to'lovchilar sonining kamayganligi bilan izohlanadi.

Korxonalar faoliyatida foyda solig'i investitsiya oqimlari boshqarilishiga, kapital jamg'arilishiga keng ta'sir etishi bilan bir qatorda, davlat byudjetining ham asosiy va

barqaror daromad manbaiga aylangan. Xususan, L. Dobbins va M. Jacob o'z ilmiy ishlarida investitsiyalarga korporativ soliqlarning ta'sirini o'rgangan holda korporativ soliq tushumlarining kamayishi milliy iqtisodiyotga real investitsiyalarning ikki barobar oshishiga olib kelganligini keltirib chiqardi [7].

Investitsiya jalb qilingan korxonalar bo'yicha taqdim etilgan soliq imtiyozlaridan oqilona foydalanmaslik bo'shayotgan mablag'lardan to'g'ri foydalanishni bilmaslik va korxonalar tomonidan olinayotgan soliq imtiyozlari salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Unga ko'ra salbiy oqibatlarni N.R. Quzieva quyidagi nuqtai-nazarni izohlaydi:


- soliq imtiyozlari natijasida amalda hech qachon ular berilayotgan chog'ida ko'zda tutilgan maqsadlarga to'liq erishmasligi;

- soliq imtiyozlariga ega bo'lgan korxonalar rivojlanishga bo'lgan intilishini yo'qotadilar va o'zlarining imtiyozli mavqeini saqlab qolishga harakat qiladilar, imtiyozlar bekor qilinda esa ular faoliyat yuritishdan to'xtaydilar;

- soliq imtiyozlari texnik taraqqiyot jarayonini sekinlashtirishga olib kelishi mumkin;

- bir vaqtlar berilgan soliq imtiyozlarini amalda bekor qilish juda ko'p qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin [8].

Investorlar uchun soliq imtiyozlarini taqdim etish hozirda keng qo'llanilib kelinayotgan tadbirlar asosini tashkil etmoqda. Masalan, xo'jalik sub'ektlari foydasi hisobidan modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni kengaytirish, rekonstruksiya qilishga sarflangan qismi soliqqa tortilmaydi. Jami soliq tushumlarida foyda solig'i imtiyozlari ulushi alohida ahamiyatga ega (2-rasm).



2-rasm. Jami soliq tushumlarida foyda solig'i imtiyozlari ulushi*

*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobot ma'lumotlari

2-rasmdan ko'rinishicha, foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarning summasi yildan-yilga ortib borgan. Foyda solig' bo'yicha imtiyozlar summasi 2021-yil 1-yanvar holatiga 261,3 mlrd.so'mni, 2022-yil 1- yanvar holatiga 394,2 mlrd.so'mni, 2023-yil 1-yanvar

holatiga 890,3 mlrd.so'mni, 2024-yil 1-yanvar holatiga 957,4 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Jami yuridik shaxslarga berilgan imtiyozlar tarkibida foyda solig'ining ulushi 2021-yil 1-yanvar holatiga 5,1 % ni, 2022-yil 1-yanvar holatiga 5,0 % ni, 2023-yil 1-yanvar holatiga 6,8 % ni, 2024-yil 1-yanvar holatiga 7,6 % ni tashkil qilgan.

Foyda solig'i bo'yicha beriladigan imtiyozlar foyda solig'i to'lovchilar faoliyati bilan bog'liq qilib qo'yilganligi muhim bo'lib, u korxonalarni mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ko'proq va sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undaydi. Faoliyat jarayonida olingan foydani korxona to'g'ri ishlatishga va iqtisodiy samara bermaydigan investitsiyalarni qilishdan qochishga harakat qiladi.

Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlardan oqilona foydalanish korxona xarajatlarining qisqarishiga, ko'proq sifatli va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishga va shu bilan birga davlat byudjetiga soliq summalarini ko'proq tushirishga qulay imkoniyat yaratadi.

Ta'kidlanishicha, korporativ soliq stavkalarining pasayishi xorijiy investorlarga nisbatan milliy investitsiyalarini kiritgan ko'proq yutadi [7]. Bunday soliq pasayishi hisobiga yuqori miqdorda investitsiyalarni kiritish va buning evaziga ko'proq tovarlar va xizmatlar realizatsiyasi hajmini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ayrim hollarda foyda solig'i stavkasining pasayishi korxona faoliyati uchun hech qanday o'zgarish bo'lmaganligi ham ta'kidlanadi [9]. Korxonalar soliq stavkasi pasaytirilishi natijasida qolgan moliyaviy mablag'larini ishlab chiqarish va boshqa faoliyatlarini kengaytirish uchun ishlatishlari lozim bo'ladi.

Oqilona soliq siyosati va unga monand xizmat qilishga da'vat etilgan soliq stavkasi milliy iqtisodiyotga investitsiya oqimini oshirishga ham xizmat qiladi. Endigi kelayotgan byudjet bosqichida turli mexanizmlarni qo'llash orqali soliq solish bazasini oshirish yoki pasaytirish, qolaversa imtiyozlarni qo'llashdan ko'ra investitsiya hisobiga yangi korxonalar tashkil etish soliq munosabatlaridagi muammolarga tezroq echim topib beradi.

Xorijiy mamlakatlarning asosiy diqqat markazida turuvchi korporativ soliq "Kuchli ettilik" mamlakatlarida yirik korporatsiyalar uchun eng kichik qiymati 2021 yilda 15 foiz etib kelishib olindi [10]. Bu stavka jahon mamlakatlar bo'yicha foyda solig'ining o'rtacha stavkasidan pastdir.

Shu o'rinda aytish joizki, korxonalar investitsion faoliyatiga soliqlarning ta'siri yaqqol ko'rinadi. Hukumat yaratilgan investitsion muhiti, investorlar imkoniyatlar va investitsiya portfeli tarkibida qabul qilingan turli soliq tartiblari o'z ta'sirini ko'rsatadi. Soliq tizimida qonunchilikdagi nomukammallik korxonalar moliyaviy-iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga va bu esa o'z navbatida davlat byudjetiga soliq tushumlarining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Bizningcha, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida hududlarda ishlab chiqarish quvvatlari va innovatsion-investitsion salohiyatga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- ilmiy-texnik taraqqiyot va mamlakat rivojlanishining ilmiy-texnik darajasini asoslovchi ko'rsatkichlar;
- boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va hayotga tadbiq etishni ta'minlashda axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish;
- xorijiy va milliy investitsiya oqimlaridan foydalanish samaradorligini oshirish;

- korxonalarda investitsion jarayonlarni faollashtirish va ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash orqali ularning texnik darajasini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi hududlarining investitsion muhiti holatini belgilashda investorlar fikrini va uning istiqbolda investitsiya yo'naltirish yuzasidan faoliyatini belgilab berish muhimdir. Unga ko'ra, davrdagi investitsion muhitga nisbatan o'zgarish holatlari, investorlar o'rtasida mablag'ni joylashtirishni huquqiy asoslash raqobatni rag'batlantiradi, mahsulot (xizmat) sifatini oshirish va bozor narxini pasaytirishni bevosita rag'batlantiradi.

Soliq munosabatlarini tadqiq qilgan taniqli olimlardan C.House va M.Shapirolar ma'lum bir davrga taqdim etilgan imtiyozlar tugagandan keyin ba'zi kompaniyalar investitsiyalashni davom ettirishlarini ta'kidlashadi [11]. Mazkur mualliflarning fikrida ular berilgan soliq imtiyozlari orqali faoliyatlarini tartibli yo'lga qo'yganligini va buning oqibatida foydaga erishayotganliklari sababli bu faoliyatlarini davom ettiradilar. Ba'zi iqtisodiy holatdan nobarqaror bo'lgan mamlakatlarda soliq imtiyozlari davri tugagandan keyin investitsiyalarni qaytarish olish holatlari kuzatiladi degan qarashlarni ham uchratish mumkin [11].

5. Xulosa va takliflar

Foyda solig'i va investitsiya faoliyatini to'g'ri olib borish davlat soliq va investitsiya siyosatini yuqori natijaviyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston amaliyotida ham investitsiyalarni kiritishda soliq qonunchiligida keltirilgan imtiyozlar va preferensiyalardan to'g'ri va samarali foydalana olmayaptilar. Ular soliq imtiyozlaridan faqatgina o'z manfaatlari yo'lida foydalanib, mamlakat iqtisodiyoti uchun kuchli rivojlanish yo'llarini ta'minlashga harakat qilmayaptilar.

Umuman olganda, foyda solig'ining investitsiyalarga ta'siri bo'yicha quyidagi tadbirlarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

1. Investitsion faoliyatni soliqlar orqali rag'batlantirishda ularning monitoring, tahlil qilish va baholashni amalga oshirib, samarasiz, foyda keltirmaydigan, eskirgan imtiyozlarni ko'rib chiqish, investitsion faoliyat bo'yicha aniq soliq imtiyozlarini berib, ularning sonini oshirishga harakat qilmaslik, asosiy kapitalga investitsiyalarni oshirishga xizmat qiladigan soliq imtiyozlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Korxonalarining iqtisodiy talablaridan kelib chiqib, ularning investitsion faoliyatiga mos keluvchi soliq tizimini, shu jumladan soliq imtiyozlar tizimini monitoring qilish lozim. Unga ko'ra joriy etilgan imtiyoz qanday foyda keltirganligini ham asoslash muhim bo'lib hisoblanadi.

3. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash uchun amortizatsiya ajratmalaridan tashqari, investitsion soliq krediti soliq mexanizmidan faolroq foydalanish zarur. Amaliy jihatdan mazkur mexanizmni qo'llash iqtisodiyotga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash maqsadida qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish, shu bilan birga soliq tushumlarini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan islohotlar barcha manfaatli tomonlarning investitsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasidagi tadbirlarini olib boruvchi soliq tizimini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мануйленко В. В., Садовская Т. А. Экономическая сущность, виды и функции прибыли хозяйствующего субъекта: современный аспект //Финансовая аналитика: проблемы и решения. – 2012. – №. 33. – С. 11.
2. Пансков В. Г. Стимулирование модернизации российской экономики посредством налоговых механизмов //Экономика. Налоги. Право. – 2013. – №. 1. – С. 67.
3. Diamond P.A., Mirrlees J.A. Optimal taxation and public production I: Production efficiency. //The American economic review. 1971. T.61. №1. – pp. 8-27.
4. Sandmo A. Investment incentives and corporate income tax. //Journal of Political Economy. 1974. T.82. №2, Part 1. – p. 287-302.
5. Broadway R., Bruce N. A general proposition on design of a neutral business tax. //Journal of Public Economics. 1984. T.24. №2. – pp. 231-239.
6. De Vito A., Jacob M., Muller M. Avoiding taxes to fix the tax code. Available at SSRN 3364387. – 2019.
7. Dobbins L., Jacob M. Do corporate tax cuts increase investments? //Accounting and Business Research. 2016. – T. 46. – №. 7. – p. 731.
8. Kuziyeva N., Khakimova U., Sakhatov F. Analysis of Impact of Tax Benefits for Regulating the Economy of Uzbekistan //International Finance and Accounting. – T. 2018. – №. 3. – p. 25.
9. Cui W. et al. Corporate Tax Cuts for Small Firms: What Do Firms Do? //Available at SSRN 3950973. – 2021. – p. 3.
10. Rodrik D. The G7 Tax Clampdown and the End of Hyper-Globalization. June 7, 2021. https://www.project-syndicate.org/commentary/g7-corporate-tax-agreement-end-of-hyper-globalization-by-dani-rodrik-2021-06?utm_source=twitter&utm_medium=organic-social&utm_campaign=page-posts-june21&utm_post-type=link&utm_format=16:9&utm_creative=link-image&utm_post-date=2021-06-07
11. House C.L., Shapiro M.D. Temporary investment tax incentives: Theory with evidence from bonus depreciation. //American Economic Review. 2008. T.98. №3. – pp. 737-768.
12. Тошматов Ш.А. - Корхоналар иқтисодий фаоллигини оширишда солиқлар ролини кучайтириш муаммолари: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 40 б.
13. Ниязметов И.М. “Инвестицион-инновацион фаолликни оширишда солиқ механизмнинг роли”. Иқтисодиётни рақобатбардошлигини оширишга банк-молия тизимининг самарали таъсирини кучайтириш. Халқаро илмий-амалий конференция тезислари тўплами. – Т.: Молия, 2017. 197 б.
14. Абдуллаев Д. Фойда солиғининг миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигига таъсирини таҳлили //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2020. – №. 2. – С. 188-195.

